RESPIRATOR TIZIM A'ZOLARI KASALLIKLARINI ZAMONAVIY TEKSHIRISH VA DAVOLASH USULLARI

Ganibayev Ikramjon Shakiraliyevich
FJSTI, "Ichki kasalliklar propedevtikasi" kafedrasi assistenti

Annotatsiya: *Nafas olish sistemasi kasalliklari so'ngi yillarda keng tarqalib ,ularning erta aniqlanishi va samarali davolanishi dolzarb masalaga aylangan .Aholining urbanizatsiyalashuvi, ekologik omillar va turmush tarzining o'zgarishi ushbu kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois diagnostika va davolash zamonaviy yondashuvlar qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kirish so'zlar: *Spirometriya, Komputer tomografiyasi (KT), Pikflurometriya, Pulsoksimetriya, Bronxoskopiya.*

Nafas olish tizizmi kassalliklari – bronxit, pnevmoniya, bronxial astma, surunkaliobstruktiv o'pka kasalligi (SO'OK) kabi keng tarqalgan patologiyalar bo'lib, ularni erta aniqlash va samarali davolash aholini sog'lomlashtirishda muhim ahamiyatiga ega. So'nggi yillarda diagnostika va davolashning zamonaviy yondashuvlari nafaqat kasalliklni aniq aniqlash ,balki uning og'irlik darajasini baholash, asoratlarning oldini olish va individual davolash rejalarini tuzishdi muhim o'rin egallamoqda .

Zamonaviy diagnostika usullari

Spirometriya va pikflurometriya – bu usullar nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini, o'pkalarning ventilatsiya ko'rsatkichlarini aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa astma va SO'OK da kasallik darajasini baholashda qo'llaniladi.

Komputer tomografiyasi (KT) – O’pka to’qimalari, plevra , bronxlar va mediastinumdagi o’zgarishlarni aniq ko’rsatadi.KT yordamida pnevmoniyaning tarqalish doirasi, o’pka fibrozlari, o’sma jarayonlari va emboliya kabi holatlar tez aniqlanadi.

Laborator tekshiruvlar – qonning umumiy tahlili, yallig’lanish ko’rsatkichlari (CRP), arterial qon gazlari tahlili nafas yetishmovchiligini baholashda muhim. Shuningdek , balg’am tahlili bakterial yoki virusli infeksiyani aniqlash imkonini beradi.

Pulsoksimetriya – qondagi kislorod to’yinganligini oddiy va tez aniqlash imkonini beradi. Uy sharoitida ham qo’llanishi kasallik dinamikasini kuzatishga yordam beradi.

Bronxoskopiya – nafas yo’llarining ichki tuzilishini ko’rish, biopsiya olish, begona jismlarni aniqlash va olib tashlashda qo’llanadi. Tuzilma va funksional o’zgarishlarni to’liq baholash imkoniga ega.

Zamonaviy davolash usullari

1. **Inhalasion terapiya**

Aerozollar va inhalatorlar yordamida dori vositalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri bronxlarga yetkazish eng samarali usullardan biridir. Bronxodilatatorlar, yallig‘lanishga qarshi preparatlar va mukolitik vositalar shu yo‘l bilan qo‘llanadi.

2. **Antibakterial va antivirus davolash**

Pnevmoniya kabi infeksion kasalliklarda sababchi mikroorganizmlarni aniqlashga asoslangan dori tanlash davolash samaradorligini oshiradi. So‘nggi yillarda antibiotiklarning maqsadli qo‘llanilishi rezistentlikning oldini olishga yordam bermoqda.

3. **Kislorod terapiyasi**

Nafas yetishmovchiligi bo‘lgan bemorlarda turli darajadagi kislorod yetkazish tizimlari (nazal kanül, niqob, yuqori oqimli kislorod berish uskunalari) qo‘llanadi. O‘tkir respirator distress sindromida kislorod terapiyasi hayotni saqlab qolishda muhim o‘rin tutadi.

4. **Nafasni qo‘llab-quvvatlovchi texnologiyalar**

- *NIV* (invaziv bo‘lmagan sun’iy nafas oldirish) — o‘pkaning tabiiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi.
- Sun’iy ventilyatsiya og‘ir holatlarda qo‘llanadi va bemorning hayotiy ko‘rsatkichlarini barqarorlashtirishda muhim.

Xulosa. Nafas olish tizimi kasalliklarini aniqlashda zamonaviy diagnostika usullarining qo‘llanilishi kasallikni erta bosqichda aniqlab, to‘g‘ri davolash choralarini ko‘rish imkonini beradi. Innovatsion davo vositalari, inhalasion terapiyalar va reabilitatsiya dasturlari bemorlarning sog‘ayish jarayonini tezlashtiradi, asoratlarning oldini oladi va hayot sifatini yaxshilaydi. Zamonaviy tibbiyotning kompleks yondashuvi nafas olish tizimi kasalliklarini samarali boshqarishga imkon bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baratella, E.; Ruaro, B.; Giudici, F.; Wade, B.; Santagiuliana, M.; Salton, F.; Confalonieri, P.; Simbolo, M.; Scarpa, A.; Tollot, S.; et al. Evaluation of Correlations between Genetic Variants and High-Resolution Computed Tomography Patterns in Idiopathic Pulmonary Fibrosis. Diagnostics 2021

2. Baba, T.; Takemura, T.; Okudela, K.; Hebisawa, A.; Matsushita, S.; Iwasawa, T.; Yamakawa, H.; Nakagawa, H.; Ogura, T. Concordance between transbronchial lung cryobiopsy and surgical lung biopsy for interstitial lung disease in the same patients. BMC Pulm. Med. 2023

3. Ganibaev I. Sh.. "MODERN METHODS OF DIAGNOSING RESPIRATORY SYSTEM DISEASES" Экономика и социум, no. 12-2 (139), 2025, pp. 217-224.ODERN METHODS OF DIAGNOSING RESPIRATORY SYSTEM DISEASES // Экономика

4. Ganibaev I.S., and Akhmedov A. K.. "THE IMPORTANCE OF BACTERIOPHAGS IN THE TREATMENT OF INFLAMMATORY BOWEL DISEASES" Экономика и социум, no. 1- 1 (128), 2025, pp. 76-80.

5. Bekkulova M. A.. "THE ROLE OF BILIARY TRACT DISEASES IN THE DEVELOPMENT OF ARTHRITIS AND ARTHROSIS" Экономика и социум, no. 12-2 (127), 2024, pp. 176-179.